

B2 Gapirish ko'nikmasini baholash mezoni

| Ball                               | So‘z boyligi  | Grammatika  | Nutq ravonligi va matn yaxlitligi  | Kommunikativ samaradorlik   | Talaffuz  |
|------------------------------------|---|---|--|---|---|
| 6 (Daraja talabidan yuqori)        | <ul style="list-style-type: none"> <li>keng ko‘lamli so‘z boyligi, jumladan, kam qo‘llanadigan so‘zlar va iboralar</li> <li>xilma-xil mavzularda fikr bildirish uchun so‘z boyligi yetarli</li> <li>so‘z topishga deyarli qiyalmaydi, perifrazadan unumli foydalangan holda leksik bo‘shliqlarni to‘ldiradi</li> <li>xatolar ma’noni tushunishga xalal bermaydi</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>xilma-xil murakkab strukturalardan samarali foydalanadi</li> <li>ko‘p hollarda grammatick xatolardan holi gaplar tuzadi, biroq ayrim xatoliklar uchrab turadi</li> <li>xatolarni o‘zi tuzatadi va ular ma’noni tushunishga xalal bermaydi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>matn yaxlitligini saqlagan holda qiyinchiliksiz ravon gapiradi</li> <li>ayrim hollarda ikkilanish, takror va tuzatishlar uchraydi</li> <li>bog‘lovchi vositalar va diskurs markerlaridan unumli foydalanadi</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>javoblar to‘liq mavzuga aloqador</li> <li>ayrim hollarda uslubiy vositalar noo‘rin tanlansa-da, fikrlarni aniq va ravshan ifodalaydi</li> <li>muloqtoga kirishish va uni olib borishda yordamga tayanmaydi</li> </ul>                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>talaffuz tushunarli mos</li> <li>ohang mazmunga</li> <li>so‘z va gap urg‘usi o‘rinli</li> <li>tovushlarni aniq va tiniq talaffuz qiladi</li> </ul>   |
| 5                                  | <i>4 va 6 ball oralig‘ida</i><br><i>(4 ballning hamma ijobji tomonlarini hamda 6 ballning ayrim xususiyatlarini namoyon qiladi)</i>   |   |  |   |   |
| 4 (Daraja talabiga mos)            | <ul style="list-style-type: none"> <li>yeterlicha so‘z boyligiga ega, kam qo‘llanadigan so‘zlarini ishlashishga harakat qiladi</li> <li>asosan notanish mavzularda fikrini aniq yetkazishda leksik repertuar nomzodni ba’zan cheklaydi</li> <li>kam qo‘llanadigan so‘zlarini ishlashida ayrim xatolarga yo‘l qo‘yadi, biroq xatolar ma’noni tushunishga xalal bermaydi</li> <li>perifrazadan asosan unumli foydalanadi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>sodda va ayrim murakkab strukturalardan foydalanadi</li> <li>murakkab strukturalarni qo‘llashda xatolarga yo‘l qo‘yadi, biroq ular ma’noni tushunishga deyarli xalal bermaydi</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>uzun diskurs yaratishga harakat qiladi, biroq ayrim hollarda ikkilanish, takror va o‘zini tuzatishlar sababli matn yaxlitligi buzilishi mumkin</li> <li>xilma-xil bog‘lovchi vositalar va diskurs markerlaridan foydalanadi, biroq doim ham o‘rinli emas</li> </ul>     | <ul style="list-style-type: none"> <li>javoblar mavzuga aloqador</li> <li>uslubiy noo‘rin tanlangan til vositalari ayrim hollarda nutqiy g‘alizlik keltirib chiqaradi, biroq muloqot o‘rnata oladi</li> <li>muloqtoga kirishish va uni olib borishda deyarli yordamga tayanmaydi</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>ohang, urg‘u va tempdan samarali foydalanadi</li> <li>talaffuz tushunarli, biroq ayrim so‘zlarini talaffuz qilishdagi xatolar nutq aniqligini pasaytiradi</li> <li>ona tili ta’siri sezilarli</li> </ul> |
| 3 (Daraja talabiga yaqin)          | <ul style="list-style-type: none"> <li>tanish va notanish mavzularda gapira oladi, biroq notanish mavzularda so‘z topishga qiynaladi</li> <li>perifrazadan foydalanishga harakat qiladi, biroq doim ham unumli emas</li> <li>xatolar ayrim hollarda ma’noni tushunishga xalal beradi</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>xilma-xil sodda strukturalardan foydalanadi</li> <li>sodda gaplarni tuzishda xatolarga yo‘l qo‘ymaydi</li> <li>murakkab strukturalardan kam foydalanadi, ularni qo‘llashdagi xatolar ma’noni tushunishga xalal beradi</li> </ul>                     | <ul style="list-style-type: none"> <li>odatda takror, o‘zini tuzatish yoki sekin gapirish orqali nutq ravonligini ta‘minlaydi</li> <li>ayrim bog‘lovchilar va markerlarni me‘yordan ortiq ishlataladi</li> <li>sodda nutq hosil qilishi ravon, biroq murakkab fikrlarni ifodalashda nutq ravon emas</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>javoblar asosan mavzuga aloqador</li> <li>tanlangan uslubiy vositalar doim ham o‘rinli emas</li> <li>muloqtoga kirishish va uni olib borishda ozroq yordamga tayanadi</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>ohang, urg‘u va tempdan ayrim hollarda noto‘g‘ri yoki noo‘rin foydalanadi</li> <li>ayrim so‘zlarini noto‘g‘ri talaffuz qiladi</li> <li>ona tili ta’siri sezilarli</li> </ul>                             |
| 2                                  | <i>I va 3 ball oralig‘ida</i>   |   |  |   |   |
| 1 (Daraja talabiga javob bermaydi) | <ul style="list-style-type: none"> <li>so‘z boyligi birmuncha cheklangan</li> <li>tanish mavzularda fikrini bayon qila oladi, biroq notanish mavzularda faqat asosiy ma’noni ifodalaydi</li> <li>so‘z qo‘llash bilan bog‘liq ko‘plab qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yadi</li> <li>perifrazadan kam hollarda foydalanadi</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>grammatik xilma-xillik cheklangan</li> <li>ko‘p qo‘llanadigan sodda strukturalardan foydalanadi, qo‘shma gaplarni deyarli qo‘llamaydi</li> <li>ma’noni tushunishga xalal beradigan xatolar tez-tez uchraydi</li> </ul>                               | <ul style="list-style-type: none"> <li>sezilarli to‘xtamlar bilan sekin gapiradi, takror va o‘zini tuzatish tez-tez uchraydi</li> <li>sodda gaplarni ayrim sodda markerlar yordamida o‘zarob bog‘lay oladi, biroq matn yaxlitligida buzilishlar uchraydi</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>javoblar qisman mavzuga aloqador</li> <li>uslubiy noo‘rin tanlangan til vositalari nutqiy g‘alizlik keltirib chiqaradi</li> <li>muloqtoga kirishish va uni olib borishda yordam va ko‘makka muhtoj</li> </ul>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>ohang, urg‘u va tempdan ayrim hollarda to‘g‘ri foydalanadi</li> <li>talaffuzda xatolar ko‘p va ular ma’noga ta’sir qiladi</li> <li>ona tili ta’siri kuchli</li> </ul>                                    |
| 0                                  | <i>I balldan past</i>   |   |  |   |   |